

## Surxondaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Surxondaryo viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 5 231,8 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 5 106,1 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 109,1 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 16,6 mlrd so'mni tashkil qildi.

### Surxondaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



### II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2026-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Denov (754,3 mlrd so'm), Sherobod (510,3 mlrd so'm), Qumqo'rg'on (462,4 mlrd so'm) va Jarqo'rg'on (452,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qiziriq (123,9 mlrd so'm), Bandixon (102,3 mlrd so'm) tumanlarini va Termiz shahrini (34,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>5 231,8</b>	<b>109,7</b>
Termiz shahri	34,0	152,5
Oltinsoy tumani	178,1	127,1
Angor tumani	398,2	106,1
Bandixon tumani	102,3	106,5
Boysun tumani	341,6	105,8
Muzrabot tumani	371,2	121,3
Denov tumani	754,3	106,0
Jarqo'rg'on tumani	452,3	106,2
Qumqo'rg'on tumani	462,4	109,4
Qiziriq tumani	123,9	108,9
Sariosiyo tumani	440,8	105,6
Termiz tumani	297,7	105,6
Uzun tumani	445,9	106,0
Sherobod tumani	510,3	123,8
Sho'rchi tumani	318,8	105,9

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (152,5 %), Oltinsoy (127,1 %), Sherobod (123,8 %) va Muzrabot tumanlarida (121,3 %) qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Termiz va Sariosiyo (105,6 %), Boysun (105,8 %), Sho'rchi (105,9 %), Uzun va Denov (106,0 %), Angor (106,1 %), Jarqo'rg'on (106,2 %), Bandixon (106,5 %), Qiziriq (108,9 %) va Qumqo'rg'on tumanlarida (109,4 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

### III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2026-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 5 000,1 mlrd so'mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ni, shu jumladan, chorvachilik mahsulotlari 4 134,8 mlrd so'mni (103,4 %), dehqonchilik mahsulotlari 865,3 mlrd so'mni (144,7 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Denov (733,3 mlrd so'm), Sherobod (497,0 mlrd so'm), Qumqo'rg'on (451,3 mlrd so'm) va Jarqo'rg'on (440,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahrini (27,1 mlrd so'm), Bandixon (99,4 mlrd so'm) va Qiziriq (120,4 mlrd so'm) tumanlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (183,2 %), Oltinsoy (131,3 %), Sherobod (126,3 %) va Muzrabot (120,0 %) tumanlarida qayd etildi. Boysun (104,8 %), Jarqo'rg'on (104,9 %), Angor (105,0 %), Uzun (105,2 %), Bandixon (105,4 %), Sho'rchi (105,5 %), Termiz (105,8 %), Sariosiyo (106,4 %), Denov (106,5 %), Qiziriq (107,1 %) va Qumqo'rg'on (107,7 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

### Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 80,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,0 % i fermer xo'jaliklariga, 11,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

### Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Denov (650,6 mlrd so'm), Qumqo'rg'on (416,4 mlrd so'm), Uzun (384,4 mlrd so'm), Jarqo'rg'on (376,2 mlrd so'm), Sariosiyo (341,0 mlrd so'm), Sherobod (298,4 mlrd so'm), va tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahri (23,7 mlrd so'm), Bandixon (85,7 mlrd so'm), Oltinsoy (90,2 mlrd so'm) va Qiziriq (110,6 mlrd so'm) tumanlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahri (2,1 m.), Uzun (104,3 %), Boysun, Muzrabot (104,0 %), Angor (103,8 %), Qumqo'rg'on, Sariosiyo (103,7 %) va Bandixon tumanlarida (103,6 %) qayd etildi. Termiz (100,6 %), Oltinsoy (101,3 %), Sho'rchi (101,9 %), Qiziriq, Denov (102,4 %), Sherobod (102,9 %) va Jarqo'rg'on tumanlarida (103,3 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 40,5 ming tonna go'sht, 162,5 ming tonna sut, 136,0 mln. dona tuxum, 132,8 tonna qirqib olingan jun, 1 750 dona qorako'l teri yetishtirildi va 567,6 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni, sog'ib olingan sut – 104,5 % ni, olingan tuxum – 106,6 % ni, qirqib olingan jun – 124,1 % ni, olingan qorako'l teri – 106,0 % ni hamda ovlangan baliqlar – 103,1 % ni tashkil qildi.



2026-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 8,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 4,7 % i fermer xo'jaliklari, 93,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2026-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi  
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliq**

	Yanvar-mart 2026-y.	O'sish sur'ati % da
<b>Go'sht (tirik vaznda), ming tonna</b>	<b>40,5</b>	<b>102,9</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3,4	119,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	35,8	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,3	120,5
<b>Sut, ming tonna</b>	<b>162,5</b>	<b>104,5</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7,6	118,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	152,4	103,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,5	138,3
<b>Tuxum, mln. Dona</b>	<b>136,0</b>	<b>106,6</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	9,7	107,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	60,5	107,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	65,8	105,7
<b>Jun, tonna</b>	<b>132,8</b>	<b>124,1</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	29,2	127,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	58,3	114,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	45,3	137,1
<b>Qorako'l teri, ming dona</b>	<b>1,8</b>	<b>106,0</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,5	113,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1,3	103,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-
<b>Baliq, tonna</b>	<b>567,6</b>	<b>103,1</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	306,2	104,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	440,9	102,4



qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

225,2

99,8

Shu bilan birga, olingan tuxumning 7,1 % i fermer xo'jaliklariga, 44,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 48,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 22,0 % i fermer xo'jaliklari, 43,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 34,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 27,0 % i fermer xo'jaliklariga, 73,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 53,9 % i fermer xo'jaliklariga, 6,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 39,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

### Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	<b>Go'sht</b> <i>(tirik vaznda), tonna</i>	<b>Sut,</b> <i>tonna</i>	<b>Tuxum,</b> <i>ming dona</i>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>40 471,1</b>	<b>162 509,5</b>	<b>135 990,8</b>
Termiz shahri	281,5	445,2	875,2
Oltinsoy tumani	1 022,7	2 099,5	2 061,9
Angor tumani	3 005,0	10 456,2	4 121,7
Bandixon tumani	856,1	3 405,5	1 261,6
Boysun tumani	3 421,1	6 207,4	3 044,2
Muzrabot tumani	2 596,9	11 712,8	14 777,0
Denov tumani	6 280,4	26 308,9	23 668,1
Jarqo'rg'on tumani	3 651,9	13 068,5	26 335,0
Qumqo'rg'on tumani	3 790,8	20 325,7	8 302,8
Qiziriq tumani	1 070,2	4 796,3	1 375,6
Sariosiyo tumani	3 300,7	14 159,2	8 918,4
Termiz tumani	2 057,7	8 168,8	20 587,1
Uzun tumani	3 652,2	17 054,1	7 871,0
Sherobod tumani	2 769,4	13 457,9	9 541,4
Sho'rchi tumani	2 714,9	10 843,7	3 250,0

## Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Sherobod (198,6 mlrd so'm), Angor (96,0 mlrd so'm), Sariosiyo (86,0 mlrd so'm), Denov (82,7 mlrd so'm), Oltinsoy (82,5 mlrd so'm), Muzrabot (81,7 %) va Jarqo'rg'on (64,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahrini (3,4 mlrd so'm), Qiziriq (9,8 mlrd so'm) va Boysun (11,8 mlrd so'm) tumanlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Muzrabot (2,1 m.) Qiziriq (187,5 %), Oltinsoy (179,0 %), Sherobod (177,2 %), Qumqo'rg'on (176,1 %) va Sho'rchi (150,4 %) tumanlarida qayd etildi. Termiz shahrida (102,4 %), Angor (108,3 %), Jarqo'rg'on (113,6 %), Bandixon (115,6 %), Sariosiyo (116,5 %), Boysun (123,7 %), Termiz (125,5 %), Uzun (132,0 %) va Denov (143,9 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar kesimida yetishtirilgan kartoshka hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>602,8</b>	<b>122,5</b>
Termiz shahri	-	-
Oltinsoy tumani	-	-
Angor tumani	-	-
Bandixon tumani	-	-
Boysun tumani	-	-
Muzrabot tumani	-	-
Denov tumani	510,0	103,7
Jarqo'rg'on tumani	-	-
Qumqo'rg'on tumani	40,6	-
Qiziriq tumani	-	-
Sariosiyo tumani	-	-
Termiz tumani	-	-
Uzun tumani	-	-
Sherobod tumani	52,2	-
Sho'rchi tumani	-	-

Yetishtirilgan kartoshka umumiy hajmining eng yuqori ulushi Denov tumani (84,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.



### Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>34 697,7</b>	<b>144,3</b>
Termiz shahri	170,5	103,7
Oltinsoy tumani	3 371,6	187,4
Angor tumani	4 605,7	106,0
Bandixon tumani	401,0	100,1
Boysun tumani	518,8	120,5
Muzrabot tumani	3 316,4	2,5 m.
Denov tumani	2 278,0	144,6
Jarqo'rg'on tumani	2 548,9	106,5
Qumqo'rg'on tumani	991,2	2,1 m.
Qiziriq tumani	380,5	2,1 m.
Sariosiyo tumani	3 819,2	112,7
Termiz tumani	2 568,0	119,6
Uzun tumani	385,8	123,4
Sherobod tumani	8 586,0	185,5
Sho'rchi tumani	756,1	155,7

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Sherobod tumani (24,7%) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Angor (13,3%), Sariosiyo (11,0%), Oltinsoy (9,7%), Muzrabot (9,6%), Termiz (7,4%), Jarqo'rg'on (7,3%) va Denov tumanlarida (6,6%) qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Termiz shahrida (0,5%), Qiziriq, Uzun (1,1%) va Bandixon tumanlarida (1,2%) kuzatildi.

2025-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati Muzrabot tumanida (2,5 m.) qayd etildi.



### Hududlar kesimida yetishtirilgan mevalar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>226,1</b>	<b>20,6 m.</b>
Termiz shahri	-	-
Oltinsoy tumani	105,2	-
Angor tumani	-	-
Bandixon tumani	-	-
Boysun tumani	0,5	-
Muzrabot tumani	-	-
Denov tumani	-	-
Jarqo'rg'on tumani	-	-
Qumqo'rg'on tumani	-	-
Qiziriq tumani	-	-
Sariosiyo tumani	-	-
Termiz tumani	118,3	29,6 m.
Uzun tumani	-	-
Sherobod tumani	2,1	-
Sho'rchi tumani	-	-

Yetishtirilgan mevalar umumiy hajmining eng yuqori ulushi Termiz tumani (52,3%) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Oltinsoy tumanlarida (46,5 %) qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Sherobod (0,9 %) va Boysun tumanlarida (0,2 %) kuzatildi.

2025-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Termiz tumanida (29,6 m.) qayd etildi.

#### IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026-yilning 1-aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 064,4 ming boshga yetdi, sigirlar 390,0 ming boshga (2025-yilning 1-aprel holatiga nisbatan 1,7 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 676,1 ming boshga (1,9 % ga ko'p), parrandalar 5 548,6 ming boshga (1,0 % ga ko'p) yetdi.

#### 2026-yilning 1-aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati, % da
<b>Yirik shoxli qoramollar</b>	<b>1 064,4</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	69,8	101,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	971,6	99,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	23,0	115,2
<b>Shundan sigirlar</b>	<b>390,0</b>	<b>101,7</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	26,3	100,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	356,7	101,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,0	127,3
<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>2 676,2</b>	<b>101,9</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	551,6	105,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 027,4	100,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	97,2	121,5
<b>Otlar</b>	<b>17,2</b>	<b>102,0</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5,4	107,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	11,1	99,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,7	108,2
<b>Parrandalar</b>	<b>5 548,6</b>	<b>101,0</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	587,4	104,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 956,2	99,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 005,0	103,0

2026-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 6,7 % i fermer xo'jaliklariga, 91,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 20,6 % i fermer xo'jaliklariga, 75,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 10,6 % i fermer xo'jaliklariga, 53,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 36,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2026-yilning 1-aprel holatiga hududlar kesimida  
chorva mollari va parrandalar bosh soni (*ming bosh*)**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1 064,4</b>	<b>2 676,2</b>	<b>5 548,6</b>
Termiz shahri	4,7	7,8	75,3
Oltinsoy tumani	48,8	96,5	246,2
Angor tumani	48,0	89,2	305,5
Bandixon tumani	31,9	67,8	98,0
Boysun tumani	54,3	417,5	261,4
Muzrabot tumani	59,2	71,6	488,0
Denov tumani	196,9	244,0	951,4
Jarqo'rg'on tumani	87,2	255,8	547,3
Qumqo'rg'on tumani	115,9	317,0	451,4
Qiziriq tumani	43,6	53,6	122,2
Sariosiyo tumani	85,1	265,0	479,3
Termiz tumani	50,5	110,7	585,0
Uzun tumani	81,3	191,7	326,5
Sherobod tumani	81,8	329,1	308,4
Sho'rchi tumani	75,2	158,9	302,7



## V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi**– sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari**– hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Fermer xo'jaligi** – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

**Dehqon xo'jaligi** – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

**Tomorqa xo'jaligi** – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

**Mollar bosh soni**– xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

**Go'sht yetishtirish**– so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

**Sut yetishtirish**– yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

**Tuxum yetishtirish**– barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

### Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

---

### Tayyorlash uchun mas'ul:

Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit  
statistikasi bo'limi

55 451-80-00 (7610)

---